

Tulkicha



Tulki – o‘rmonning eng chiroyli jonivorlaridan biri. **To‘q sariq** – niqoblanish uchun qulay rang. Tulkining bunday rangli yungi unga kuzgi o‘rmonning quruqshab qolgan o‘tlari orasida yashirinib olishiga yordam beradi. **Dumining oppoq uchi** esa bolalari onasining ortidan adashmay ergashib yurishlari uchun xuddi fonarchaga o‘xshab yo‘l ko‘rsatadi.




Bugun siz **to‘q sariq yungli tulkichani** bosqichma-bosqich chizasiz. Keyin esa rasmni kuzgi yaproqlar bilan bezaysiz. O‘rmondagi do‘stingiz quvnoq va yoqimli chiqsin!

Rasm chizish bosqichlari:

1. Qalamda yengil harakatlar bilan **ikkita oval chizing**: bosh va tana. Ularni chiziqlar bilan tutashtiring.
2. **Dum, quloqlar, buruncha, ko‘zlarni** chizing. Ortiqcha chiziqlarni o‘chiring.
3. **Detallar** va **fon** qo‘shing.




2



1



2



3



4



5



6

